

## OILA MUSTAHKAMLIGINI TÁMINLASHDA AYOLNING ORNI

**Zaretdinova Nesibeli Kurbanbaevna**

*(Ilmiy rahbar: QQDU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida dotsenti (PhD))*

**Kurbanbaeva Mehriban Jenisbay qizi**

*(Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti  
Sociologiya yónalishi 2-kurs talabasi)*

**Annotatsiya:** Mazkur ishda ayolning oila va jamiyat hayotidagi muhim órni, ayniqsa farzand tarbiyasidagi beqiyos ahamiyati yoritilgan. Ayolning mehr-muhabbat, sabr-toqati va donoligi oiladagi tinchlik va totuvlikni táminlashda muhim omil ekani tahlil qilinadi. Shuningdek, ayollarning jamiyat taraqqiyotidagi órni va turli sohalaridagi faol ishtiroki haqida fikr yuritiladi. Tadqiqot natijasida ayolni ézozlash va qadrlash jamiyat rivoji hamda komil avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega ekani tákidlanadi.

**Tayanch sózlar:** ayol, oila, ona, farzand tarbiyasi, jamiyat, mehr-muhabbat, sabr-toqat, mánaviyat, oila mustahkamligi.

**Annotaciya:** Bul jumista hayaldin shańaraq ham jámiyetlik turmistađı áhmiyetli orni, ásirese perzent tárbiyasidađı sheksiz áhmiyeti sáwlelendirilgen. Hayaldin mehirmuhabbatı, sabır-taqatı ham danalıđı shańaraqtađı tınıshlıq ham tatiwlıqtı támiyinlewdede áhmiyetli faktor ekeni tallanadı. Sonday-aq, hayal-qızlardın jámiyettiń rawajlanıwındađı orni ham hár qıylı tarawlardađı belsene qatnasıwı haqqında pikir júrgiziledi. Izertlew nátiyjesinde hayaldı qádirlew jámiyettiń rawajlanıwı ham kámil áwladtı tárbiyalawda úlken áhmiyetke iye ekeni atap ótiledi.

**Tayanish sózler:** hayal, shańaraq, ana, perzent tárbiyası, jámiyet, mehirmuhabbat, sabır-taqat, mánaviyat, shańaraq bekkemligi.

**Аннотация:** В данной работе освещается важная роль женщины в жизни семьи и общества, особенно ее несравненное значение в воспитании детей. Анализируется, что любовь, терпение и мудрость женщины являются важным фактором обеспечения мира и согласия в семье. Также рассматривается роль женщин в развитии общества и их активное участие в различных сферах. В результате исследования подчеркивается, что уважение и почитание женщин имеет важное значение в развитии общества и воспитании совершенного поколения.

**Ключевые слова:** женщина, семья, мать, воспитание детей, общество, любовь, терпение, духовность, крепость семьи.

**Annotation:** This work highlights the important role of women in family and social life, especially their incomparable importance in raising children. It is analyzed that a woman's love, patience, and wisdom are important factors in ensuring peace and harmony in the family. It also discusses the role of women in the development of society and their active participation in various fields. As a result of the research, it is

*emphasized that respecting and honoring women is important for the development of society and the upbringing of a harmoniously developed generation.*

**Keywords:** *woman, family, mother, child-rearing, society, love, patience, spirituality, family stability.*

Oila jamiyatning eng muhim bóginlaridan biridir. Oilaning mustahkam va baxtli bólishida ayolning órni juda katta. Ayol oilada mehr, sabr va tarbiya timsoli hisoblanadi. U nafaqat ona, balki turmush órtog'i va jamiyatning faol ázosi sifatida ham muhim vazifalarni bajaradi.

Ayol- eng avvalo ona sifatida farzand tarbiyasida katta rol óynaydi. Farzandlarning odobli, bilimli va tarbiyali bólib ulg'ayishida onaning mehnati beqiyosdir. Ona bolalarga mehr beradi, ularni tógri yólga boshlaydi va yaxshi inson bólib yetishishiga yordam beradi. Ayol- oilada tinchlik va totuvlikni saqlashga harakat qiladi. U oila ázolari órtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi, mehr-muhabbat muhitini yaratadi.

Ayol – hayotning qutluq asl bólagi, jamiyatning tayanchi va insoniyatning kelajagini tarbiyalovchi muqaddas zotdir. Har qanday jamiyatning yuksalishi yoki tanazzuli bevosita ayollar holatiga, ularga berilgan hurmat va imkoniyatlarga bogliqdir.

Ayolning sabr-toqati va donoligi kóp muammolarni hal qilishga yordam beradi. Ayol nafaqat oila tinchligini saqlovchi, balki jamiyatni rivojlantiruvchi ulkan kuchdir. Ayollar nafaqat farzand tarbiyasida, balki iqtisodiyot, tálim, tibbiyot, saát va siyosatda ham ózining mustahkam órnini topgan. Ayollarning jamiyatda óz órnini topishida atrof – muhitning, oila ázolarining ahamiyati juda katta hisoblanadi.[1]

Psixolog Gulxan Ziyadovna shunday degan: "Erni er qiladigan ham qora yer qiladigan ham bu ayoldir. Chunki ayol uyning bekasi kozgusi hisoblanadi. Uyrózgordagi narsa bor qiladigani ham yoqdan bor qiladigani ham bu ayoldir. Ular hamiysha bolalariga ilm beradi umr yoldoshini ham qadrlaydi. Oilaning farovon yashashi bu kopincha ayolning qolidadir. [2]

Farida Abdurahimova bilan suxbatda shunday degendi: "Ayol bu faqatgina zaif inson emas bu ulug zotdir. Qaysidir davlatni bosib olmoqchi bolsang, eng avvalo shu davlatning ayollariga boq. Sababi bu davlatda ayollar ilimli irodali kuchli bardoshli bolsa bu davlatni qancha jang qilsang ham bosib olish qiyindir. Sababi ayol bu eng mukammal inson hisoblanadi.

Korinishidan zaif bolishi mumkin ammo ularda kuchli bir mehrli kuch bor uni yengish heshkimning qolidan kelmaydi" degandir. Intervyu davomi kop savol javoblar boldi. Ularning ichida Farida Abdurahimova birnecha savollarga toqtalib otdilar.

Bu "Ayollik baxti nima?" Ayol qachon ozini baxtli xis qiladi? Ayol baxti bu ham jamiyatta ham oilada ozini ornini topgan dunyodagi eng baxtli ayoldir. Chunki ayol ikki ogiz shirin sozga erip ketadi va oz mehrni ayamasdan hammaga beradi. U yaxshi bolsin

yomon bolsin. Ularga étibor shirin sózlar ishonchni ifoda qilsaq ular heshnarsadan toqtamaydi faqat yaxshilik yolida intiladi. [3]

Psixolog Nargiza Sattorava óz intervyuda oilada kimning másuliyati kóproq ekanligini aytib otadi. Nargiza Sattora "Oilada kóproq kim másuliyati óz boyniga kim olishi shart deganda hammamizga erkaklar degan javob keladi. Nimaga bunday oylaymiz chunki u erkak pul topishi kerak oila boqishi kerak oqishi kerak deb oylaymiz va ayollar étibor bermaymiz. Mening fikrimcha kóproq másuliyatni ayollar olishi shart. Nima sababdan chunki oilani balandga kótarishi ham erni er qiladiganam bolaga tarbiya beradigan ham bu ayol. Ayol uyda otirganida bolaga ilim beradi va uni tarbiyalaydi. Bular qayerdan keladi bular ayolning ilimli bólshidan darakdir. U eriga fikr bildirib uni tógri yólga boshlaydi. Bu ham uning ilimligidan rostgoyligidan. U hamma ishni vazifani óz vaqtida bajaradi. Bu esa másuliyatli ekanligidan darakdir. Shularni bilib turib nima uchun ular étibor bermaymiz, nima uchun ularning harakatlarini baholamaymiz. Biz hardoim ayolni ézozlashimiz kerak ularga hurmat éhtirom bildirishimiz kerak. [4]

Oilada onaning órni, uning farzandlar tarbiyasiga kórsatgan tásiri haqida xalqimiz kóp fikrlar aytganki, bu bejiz emas. Chunki oiladagi iqlim, farzandlarning xulqi, odobi, otaga munosabati, atrofdagi kishilarga va jamiyatga munosabati aynan ana shu onaga bogliq. Bola hayotga, kishilarga, voqealarga, avvalo, onaning kózi bilan qaraydi. Shuning uchun ham xalq orasida "Ota bilimli bólsa, farzandlar bilimli bóladi. Ona bilimli bólsa, millat bilimli bóladi", degan naql mavjud. Atoqli pedagog A.Avloniy aytganlaridek, "...Birinchi - uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidir" Haqiqattan ham, millat tarbiyasiga birinchi navbatda onalar ma'suldirlar. Chunki ayollarda faqat oilani emas, bázi erkaklar ham eplay olmaydigan, mamlakatni idora qila oladigan quvvat ham borki, buni juda kóp allomalarimiz tan olib, ayolning nafaqat oiladagi, hatto jamiyatda óz órni borligini alohida tákidlashgan va "Oqila ayol - oilaning asosi, bolalarni óz zamonasi uchungina emas, kelajak uchun tarbiyalay oladi", [5] - deganlar. Sababi hardoyim ona bolasini yaxshi tarbiyalab kamolga keltiradi. Farzandi uchun hamma narsa qiladi. Uning yutuqlarga yerishishga ishonib kunu-tun duo qilib otiradi. Xalqimizda shunday voqealar bor: "Ustoz shogirtidan imtihon olibdi. Bu imtihonda uning bilimini ilimini, maqsadini mehribonligini tekshirmoqchi ekan va shunday topshiriq beribdi. Sen menga jannat tupro'gini olib kelasan debdi. Shogirti bólsa "Xop boladi" deb chiqib ketibdi. Ustozi hayron ekan. Kop otmay bir kichkina xalta bilan kirib kelibti. - Ustoz siz soragan jannat tupro'gini olib keldim debdi. Ustozi qarasa oddiy tuproqdan farqi yoq ekan. Shogirti ustozining tushunmaganin bilib "Tog'ri bu oddiy tuproq lekin men bu tuproqning ustidan onamni bir marta yurgizdim va bu tuproq jannat tupro'giga aylandi"- deb tushuntiribdi. Ustozi shogirtining aqliga hayron qolibdi. Xalqimizdagi yozilgan "Jannat onalar oyo'gi ostida" maqoli ham onalarga ézozlanib aytilgan. Avval yashab ótgan ulug' donishmandlarimiz: "Har bir buyuk inson ortida bir oqila ayol bor", deb bejiz aytishmagan.[6]

Darhaqiqat, jamiyatning yuksalishida ayolning tutgan órni naqadar kuchli ekanligiga hayotning ózi, tarixning ózi guvohlik beradi. Ona-dunyoda eng tabarruk zot. Hayot onadan boshlanadi, chunki u farzandlar ijodkori, insoniyat mémori. Ona - inson tafakkurining gulshani, inson kamolotining sababchisidir.

Ona uchun eng katta baxt - bu farzandlarni risoladagiday tarbiyalash, voyaga etkazishdir. Onaning farzandga munosabati har qanday vaziyatda ózgarmaydi. Kishining eng yaqin dósti, sirdoshi, beqaraz maslahatgóyi ham ona. Eng ógir damlarda senga ham dard va hamdam bólgan ham ona. Farzandda eng kóp haqqi bor odam ham ona. Ona roziligini olgan farzand uchun Jannat eshiklari ham ochiladi.

Shuning uchun ham "Jannat onalar oyoí ostida", - deyiladi muborak Hadisi Sharifda. Hadisi Sharifda ham "Ayollarni faqat uluú odamlar hurmat qiladi. Ularni faqat pastkash odam xórlaydi. Haqiqiy mómin deb xushxulq va ayoliga nisbatan xushmuomala kishiga aytiladi" - deyiladi. [7] Ayol – oilaning yuragi, jamiyatning mustahkam tayanchi va kelajak avlodni tarbiyalovchi eng muhim shaxsdir. Uning mehr-muhabbati, sabr-toqati, donoligi va maśuliyati tufayli oilada tinchlik, totuvlik va baraka hukm suradi.

Ayniqsa ona sifatida ayol farzandlar tarbiyasida beqiyos órin egallaydi. Farzandlarning odobli, bilimli va komil inson bólib voyaga yetishida onaning tarbiyasi, nasihati va hayotiy ibрати hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ayollar nafaqat oilada, balki jamiyat hayotining turli jabhalarida ham faol ishtirok etib, uning taraqqiyotiga katta hissa qóshmoqda. Ilmli, irodali va márifatli ayollar jamiyatning ravnaq topishiga, millatning kelajagi esa yanada porloq bólishiga xizmat qiladi.

Chunki ayolning tarbiyasi orqali butun bir avlodning mánaviy qiyofasi shakllanadi. Demak, ayolni ézozlash, uning mehnati va fidoyiligini qadrlash har bir jamiyatning muhim vazifalaridan biridir.

Ayol hurmat topgan, uning qadr-qimmati uluúlangan jamiyatda oila mustahkam, farzandlar baxtli va kelajak yanada porloq bóladir. Shuning uchun ham ayolni qadrlash – jamiyatning mánaviy yuksalishiga xizmat qiladigan eng muhim qadriyatlardan biridir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Gender tenglik va huquq: Ózbekistonda ayollarning siyosiy va iqtisodiy huquqlari. – Toshkent, 2020
2. Psixolog Gulxan Ziyadovna “Erni er qiladigan ham qora yer qiladigan ham bu ayol” intervyusidan
3. “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti bólim boshligi, professor Farida Abdurahimovaning “Jadid” gazetasida “Ayol uyqonmasa uyqonmas millat” sarlavhali maqolada suhbat.
4. Psixolog Nargiza Sattarova “Oilada maśuliyat kimda?” intervyusida.

5. N.Mustafoeva "Ayol yuksaltirur bashariyatni", "Tafakkur" jurnali, 1999 yil, № 3. 120- bet.

6. Ayollar va mehnat huquqlari: Ózbekistondagi yutuqlar va muammolar” maqolasi. – “Xalqaro mehnat tashkiloti”, 2022.

7. A.Ibroximov, X.Sultonov "Vatan tuygusi", Toshkent - 1996, 83 - bet.